

Abduxalil Mavrulov

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
professori, tarix fanlari doktori
E-mail: mavrulov54@icloud.com*

IJTIMOIIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ZIYOLILAR O'RNI MASALASIGA DOIR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, sovet mustabid tuzumi sharoitida o'zbek ziyolilariga nisbatan olib borilgan siyosat, har qadamda ularni ta'qib etishga qaratilgan munosabatlar, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda ziyolilarning o'rni masalasi, mustaqillik davriga kelib jadidlarga berilgan xolisona baho va bugungi kun ziyolisiga qo'yilgan talablar haqida bahs yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy muhit, ziyoli, jadid, mustaqillik, muammo, Yangi O'zbekiston, kelajak, ta'lim, tarbiya.*

ON THE ISSUE OF THE PLACE OF INTELLECTUALS IN ENSURING THE STABILITY OF THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT.

Abstract. *This article discusses the policy pursued against Uzbek intellectuals under the Soviet authoritarian regime, the attitude aimed at persecuting them at every step, the role of intellectuals in ensuring the stability of the socio-spiritual environment, the objective assessment given to the Jadids in the period of independence, and the demands placed on today's intellectuals.*

Keywords: *social environment, intellectual, Jadid, independence, issue, New Uzbekistan, future, education, upbringing.*

Bugungi shiddat bilan kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlari jahon miqyosida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga o'ziga xos tarzda ba'zan ijobiy, ayrim hollarda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday holni Yangi O'zbekiston misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, tinchlik, ijtimoiy hamkorlik, barqaror taraqqiyot masalalari mamlakatimizda ham eng muhim ijtimoiy qadriyatlar sifatida tan olinmoqda va unga amal qilinmoqda. Buni davlat rahbarining xalqaro

miqyosdagi sa'y-harakatlari, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradigan ko'plab tashabbuslarida ham ko'rish mumkin.

Ayni paytda, globallashuvni jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitiga salbiy ta'sirini ham har qadamda ko'rish mumkin. Ijtimoiy-ma'naviy muhitning beqarorlashuviga ayrim hollarda jamiyatda sodir bo'layotgan ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, qadriyatlarning yemirila borishi, mafkuraviy bo'shliq, g'oyasizlik kabi salbiy holatlar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazarimda, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini barqarorlashtirishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar juda ko'p bo'lsa-da, biroq, bu jarayonda ziyolilarning o'rni va roli alohida kasb etadi. Tarixchi bo'lganim uchun yaqin tariximiz, sovet mustabid tuzumi sharoitida o'zbek ziyolilariga nisbatan olib borilgan siyosat, har qadamda ularni ta'qib etishdan iborat munosabatni tahlil qilishga harakat qildim.

Gap shundan iboratki, mustabid tuzum maddohlari ziyolilarni "dushman tabaqa" sifatida quvg'unga olib, ular faoliyatidan har qadamda "siyosiy-mafkuraviy buzg'unchilik elementlari"ni qidirdilar. "Milliylik", "milliy o'zlik", "o'zbek", "milliy madaniyat" kabi so'zlar va tushunchalardan shu darajada azoblanardilarki, pirovard natijada bunday so'zlarni tilga olganlar asta-sekin maxsus organlarning "qora ro'yxati"ga kiritildilar, keyinchalik ular qatag'on qilindilar.

Shu nuqtayi nazardan qayd etish kerakki, sovet mustabid tuzumi tom ma'noda milliy ziyolilarimiz uchun og'ir davrlar bo'ldi. Adolatni istash, to'g'ri gapni gapirish, milliy manfaatni himoya qilish, hattoki, ajdodlar ruhini shod etish kabi azaliy qadriyatlar oyoq-osti qilindi. Ziyolilar tomonidan yaratilgan har bir asar shubha ostiga olindi, ming chig'iriqdan o'tkazilib, g'oyaviy-siyosiy andozalar orqali tahlil etildi.

Essiz, o'sha davrlar, qanchadan-qancha davlatimiz, millatimiz tarixiga, milliy o'zlik va mentalitetimizga, buyuk bobolarimiz ijodiga bag'ishlangan asarlar atayin yo'q qilindi, bunday asarlar mualliflari esa quvg'unga olindi. Eng yomoni shu bo'ldiki, ayrim e'tiqodi sust, qiyinchiliklar oldida esankiragan, sovet davlatining arzimagan "rahmatlari-yu mukofotlari" oldida milliy manfaatlarni inkor etgan

manqurtlarning paydo bo'lishi jamiyatda jiddiy ijtimoiy bo'linishning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bular oqibatida ma'naviy tanazzul yuz berdi.

Boshqa tarafdin, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan jahoniy ma'naviy buzilishlar o'zining o'tkir salbiy ta'sirini hali ham ko'rsatib kelmoqda. Boz ustiga ular yanada "takomillashib" bormoqda. "Eng rivojlangan mamlakatlar ham barham bera olmayotgan ma'naviy tanazzul balosi, – deb yozadi mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev, – aynan o'sha, bundan 60-70 yil ilgari ko'plab taniqli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan, hayotga zudlik bilan tatbiq etilgan va insoniyatni ma'naviy g'ariblashtirishga olib kelgan ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik texnologiyalarining natijasi ekani bugun ko'pchilikka ayon. Ammo o'tgan asrning 70-yillariga kelib ushbu tamoyillar ustuvor qiyofa kasb etib, ular asosidagi texnologiyalar jamiyat hayoti va odamlar tafakkurini buzib bo'lgan, ya'ni "poyezd ketib bo'lgan", jamiyat, ayniqsa, yoshlar o'zgargan, ularning ongi va tafakkuriga buzg'unchi g'oyalar ta'siri o'rnashib qolgan edi. Oqibati esa ma'lum"

[1, 233-b]. Endi-chi, endi vaziyat mutlaqo o'zgardi. Mustaqillik tufayli milliy ziyolilarimizning ko'krigiga shabboda tega boshladi, tom ma'nodagi ijod va yaratish erkinligiga erishila boshlandi. Bu jarayon, ayniqsa, keyingi sakkiz-to'qqiz yil ichida jiddiy rivojlandi. Agar sovet davrida rasmiy hokimiyat ziyolilar timsolida o'zining "ashaddiy dushmani"ni ko'rgan bo'lsa, keyingi yillarda bu toifa kishilar jamiyatda to'planib qolgan turli muammolarni hal etishga, uning samarali yo'llarini topishga jiddiy kirishgan, mamlakat farovonligi yo'lida faol harakat qiluvchi ijtimoiy tabaqa sifatida tanila boshladilar.

Boshqacha so'z bilan aytganda, bugungi ziyolilar Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni barpo etishning ilmiy-konseptual va adabiy-badiiy poydevorini qurishga bel bog'lagan kishilar tarzida mamlakat aholisi tomonidan tan olinmoqda. Eng muhimi, mamlakat rahbariyati yangi jamiyat va ma'naviy makon, ma'rifatli davlat barpo etishda ziyolilar bosh rolni o'ynashi lozimligini ochiq e'tirof etmoqda. Bu esa, mamlakat rahbarining amaliy harakatlarida, davlat dasturlarida, real hayotda o'z aksini topmoqda.

Bugungi Yangi O'zbekiston rahbariyati ziyolilarga millat gullari, millat fidoiylari sifatida qaramoqda, jamiyatda to'planib qolgan muammolarni bartaraf etishda, globallashtirish jarayonida kuchayib borayotgan ichki va tashqi tahdidlarni zararsizlantirishda ularga alohida e'tibor bermoqda. Bekorga mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev: "Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoiylari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik", – demagan [2, 5-b].

Agar muhtaram Prezidentimizning yuqoridagi fikriga tayanadigan bo'lsak, unda Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar bugungi kunda ham tobora kuchayib bormoqda. Jahoniy globallashtirish tufayli milliy o'zlikka qarshi qaratilgan tahdidlar, o'z maqsadiga boshqa davlatlar hisobiga erishishdan iborat geopolitik manfaatlar barcha mintaqalar va davlatlar qatori yurtimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Endi bundan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ana shu tahdidlar-u g'arazli niyatlarga burkangan, faqat o'zini o'ylagan egoistik manfaatlar har bir davlatning ziyolilari, ilm-fan arboblari, madaniyat va ma'naviyat fidoiylaridan mavjud tahdidlarga jiddiy munosabatda bo'lishni talab etmoqda. Shu ma'noda mamlakatimizda ziyolilarning ijtimoiy-mafkuraviy faolligini oshirish, dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan tahlil qilish, fuqarolarimizni turli ichki va tashqi tahdidlardan ogohlantirib turishdan iborat vazifalarni sidqidildan bajarish nazarimizda, muhim, ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur vazifalarning o'ta jiddiyligiga diqqat qaratgan holda mamlakat rahbari ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralarni ko'rmoqda. Masalan, afsuski, yaqin-yaqingacha ham ko'p ming sonli ziyolilarimizni qo'llab-quvvatlashning aniq rejalashtirilgan tizimi shakllanmagan edi. Mamlakat rahbarining shaxsan tashabbusi bilan ziyolilar ustidan homiylik harakati keng tus ola boshladi.

Ayniqsa, 2017 yilning 3 avgustida davlat rahbarining ziyolilar, madaniyat, san'at xodimlari bilan o'tkazgan tarixiy uchrashuvi bu borada katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'shanda yurtimizdagi ijodiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 70 ga yaqin "Do'stlar klubi" tashkil etilgan edi. Qisqa muddatda bu yo'nalishda 100 milliard so'mga yaqin homiylik yordami ko'rsatildi. Shuning hisobidan ijodiy tashkilotlar faoliyatini yanada rivojlantirish, adib va san'atkorlar, ziyolilarimizni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yosh ziyolilarni, iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin ijodiy seminarining qayta tiklanishi, ijodkor ziyolilar uchun turli sihatgohlarning barpo etilishi – bularning bari ziyolilarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishda muayyan ahamiyat kasb etdi.

Mamlakat ziyolilarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar to'g'risida fikr ketganda o'sha tarixiy yig'ilishda mamlakat rahbari tomonidan ijodiy ishlarga ijtimoiy buyurtma berilishi bilan bog'liq masalani alohida ta'kidlash kerak. Haqiqatdan ham, bunday tizimning yaratilishi madaniyat va san'at xodimlari, adabiyot darg'alarining xalqimizda bugungi dunyoda sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan teran munosabatda bo'lish kayfiyatining shakllanishiga, jamiyatda mavjud muammolarni anglab yetish va ularni hal etishga jamoatchilik fikrining yuzaga keltirishdagi o'rni benihoya katta bo'ldi.

Shubhasiz, bunday tadbirlar Yangi O'zbekiston ziyolilarida ijodiy kayfiyatning, ijtimoiy faollik muhitining shakllanishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bugun uyg'oq qalbli ziyolilarimiz Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans barpo etishning eng oldingi saflarida mehnat qilmoqdalar, ular tomonidan yaratilgan adabiy-badiiy asarlar, madaniyat va san'at namunalari xalqimiz tarafidan qizg'in kutib olinmoqda.

Men maqola boshida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida o'tkazilgan tadbir va unda turli soha ziyolilarining bir tan-u bir jon bo'lib suhbat qurishganini, yutuqlarimiz-u muammolarimiz, ularning yechimlari haqida fikrlashganini bekorga keltirmadim. Biz bugun yangi jamiyat barpo etar ekanmiz,

uni barpo etuvchilarning eski konservativ tafakkur tarzi bilan aslo qurish mumkin emasligini ko'p bora qayd etamiz. Ana shu jamiyatni barpo etuvchilarni tarbiyalaydigan, muammoli dunyoda fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning noto'g'ri yo'llarga kirib ketishlarining oldini olishda, shubhasiz, ziyolilarimiz xizmati katta.

Biroq, keyingi paytlarda turli davralarda turli toifadagi ziyolilarimizning mashvaratlarida ishtirok etib, ular tomonidan bildiriladigan ayrim mulohazalarini tinglab, nahotki, shu o'zbek milliy ziyolilarimiz "kuch-qudrati" bilan yangi jamiyat quramiz, deging keladi. Darhaqiqat, millatni millat qiladigan, jamiyatni birlashtiradigan qatlam bu – milliy ziyolilarimiz hisoblanadi.

Xizmat safarlari, turli ijodiy uchrashuvlar chog'ida ba'zi milliy ziyolilarimizning barpo etilayotgan davlat, taraqqiyotimizning eng ustuvor yo'nalishlari, shaxs-jamiyat-davlat tamoyillari haqidagi mulohazalarini tinglab, ularning o'zlari bilan hali jiddiy ishlar olib borish lozimligini anglab yetaman. Gap bu yerda ba'zi ziyolilarimizning biz yuqorida qayd etgan masalalar bo'yicha bilim saviyalarining pastligi xususida ham emas. Gap, eng avvalo, ularni tinglab, ulardan "bilim" olayotgan yoshlar, aholining turli qatlamlari haqida ketmoqda. Taassuflar bo'lsinki, ayrim hollarda milliy mustaqilligimizga 34 yil to'lganiga, bu yillarda, ayniqsa, so'nggi 8-9 yillar davomida qo'lga kiritgan yutuqlarimizni xalqimiz, shuningdek, jahon jamoatchiligi tan olib turgan bir paytda sovet mustabid tuzumini qo'msaydiganlar ham yo'q emasligi barchamizni tashvishga, xavotirga solish kerak.

Qolaversa, mamlakatimiz rahbari bot-bot ma'rifatli davlat, ma'rifatli jamiyat, yangi ma'naviy makon, Uchinchi Renessans, uning mamlakat va jamiyat taraqqiyotidagi o'рни haqida kuyinib gapiradi. Ayrim paytlari milliy tariximizni yaxshi bilmaganligimiz uchun qator prinsipial masalalarda adashamiz, xato fikrlar gapirib o'quvchilarni adashtiramiz.

Afsuski, mening bu fikrlarimda ortiqcha oshirish yo'q. Boz ustiga ayrim ziyolilarimiz o'zining jamiyatda tutish odobi nuqtayi nazaridan ham boshqalarga ibrat bo'la olmayapti. Bu esa, ba'zan aholining muayyan qismida noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

Mening nazarimda buning qator sabablari borgan o'xshaydi. Eng avvalo, ziyolilarning mansab-u martabasini oshirishga e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaymiz. Buning uchun mamlakat rahbari barcha tashkiliy, huquqiy-me'yoriy masalalarni allaqachon hal qilib berdi. Biz ularning ayrimlari haqida avvalroq gapirishgan edik. Endi gap bizning o'zimizda, ziyolilarda qoldi, desak to'g'ri bo'lar edi.

Shu o'rinda ziyolining mas'uliyati, degan gap, nazarimizda muhim ahamiyatga ega. Barchamizning xabarimiz bor – mustaqillikning dastlabki 20-25 yili mobaynida ziyoli “paytavasiga qurt” tushgan edi. Ziyoli har qadamda jamiyatning eng pastki qatlami sifatida ko'rilar, ularning ijtimoiy nufuzi juda tushib ketgan edi. Bu borada, ayniqsa xalqimiz ko'nglidan chuqur joy olgan qiziqchimiz Hojiboy Tojiboyevning o'qituvchilar haqidagi hangomalarini bir eslaylik. Bugun-chi, Yangi O'zbekiston jamiyatida ziyoli o'zining tom ma'nodagi o'rniga ega bo'lib bormoqda.

Ayni shu o'rinda ziyolining o'z mas'uliyatini chuqur his etishi masalasi muhim o'ringa ega bo'lmoqda. Xo'sh, bugungi ziyoli mas'uliyatini oshirish uchun nima qilish kerak?

Birinchidan, bugungi ziyoli o'zining ustida tinimsiz ishlashi, ayniqsa, davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor tamoyillari haqidagi bilimlarini mukammal bilishi lozim, deb o'ylaymiz. Yangi O'zbekistonni barpo etishning nazariy-konseptual masalalarini bilmasdan turib u haqida kitob yozish, spektakl, kino asarlari yaratish mumkinmi? Shu nuqtayi nazaridan, ziyolining bugungi mas'uliyati uning davlat va jamiyat qurilishi haqida bilimlarining saviyasiga bog'liq, deb o'ylaymiz. Unutmaslik kerakki, haqiqiy asar uning badiiy qudrati va ijtimoiy kuchi uyg'unligidagina yaratilishi mumkin.

Ikkinchidan, ziyoli jamiyat taraqqiyoti, unda shaxslar o'rnini doimo his etib turuvchi barometr bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz. Gap shundan iboratki, bugungi tez rivojlanayotgan dunyoda jamiyat a'zolarining yuksak ma'naviy talablari ham ortib bormoqda. Bunday talablarni birdaniga anglash juda qiyin. Shuning uchun ham ziyolidan o'tkir zehn, yaxshi bilan yomonning farqini aniqlay oladigan, hayotni teran tahlil qiladigan sinchkov nigoh kerak.

Jamiyat hayotida ziyoli mas'uliyatining ortib borishiga undayotgan omillardan yana biri aholi, ayniqsa yoshlar ma'naviy-madaniy ehtiyojlarining tobora ortib borishi va bu ehtiyojlarni samarali qondirish bilan bog'liqdir. Haqiqatdan ham, tabiiy ehtiyojlar kabi insonning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari ham tinimsiz ravishda ortib boradi. Agar ziyoli mazkur ehtiyojlar iyerarxiyasidagi muayyan tizimni, ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni aniqlay olmas ekan, bundan jamiyat zarar ko'rishi mumkin.

Uchinchidan, ziyoli mas'uliyati har bir insonni ezgu maqsadlar, strategik mo'ljallar sari safarbar etishga undaydi. Bunday maqsadlar esa davlat rahbarining quyidagi fikrlarida aniq-ravshan bayon etilgan: "Biz bugun bashariyatning azaliy orzusi bo'lgan inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan, farovonlik va taraqqiyot, imkoniyatlar va ezgu niyatlarning ro'yobga chiqishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan, adolat, hamkorlik, tenglik va qonun ustuvorligi kabi demokratik tamoyillar mustahkam qaror topgan, tinchlik-totuvlik va osoyishtalik hukmron bo'lgan, barqaror rivojlanayotgan dunyo sari intilmoqdamiz" [3, 5-b]. Nazarimizda, bugungi ziyoli xalqimizning ana shu maqsadlarga erishishni badiiy obrazlarda, ishonarli tarzda yaratib berishi lozim, deb o'ylaymiz.

Masalaning shu taxlitda qo'yilishining yana bir muhim sababi bor. Gap bugungi kun qahramoni obrazini yaratish haqida ketayotganini zukko o'quvchi allaqachon anglab yetgan bo'lishi kerak. Bugungi kun qahramoni faqat qo'l kuchi bilan moddiy ne'matlar yaratadigangina emas. U eng avvalo ma'rifatli inson, davlat va jamiyat taraqqiyotida o'z shaxsiy hissasi borligini seza-digan, ijtimoiy faol, ayni paytda siyosiy-mafkuraviy jihatdan sergak shaxsdir. Bugungi Yangi O'zbekiston uchun ana shunday zamon qahramonlari qanchalar darajada kerak bo'lsa, ularning yaratilishida ziyoli mas'uliyati ham shunchalar zarur, deb o'ylaymiz.

To'rtinchidan, bugungi o'zbek milliy ziyolisi jamiyat ijtimoiy hayotida shu darajada kerakki, u bir tomondan amalga oshayotgan tub islohotlar mazmun-mohiyatini tushuntirib bersa, boshqa tomondan bizga endi har tarafdan xuruj qilib turgan tahdidlarni ko'ra bilishi, ularni tahlil qila olishi lozim. Bu juda murakkab vazifa. Ammo, unga panja ortidan qarash esa mutlaqo mumkin emas.

Shuning uchun ham muhtaram Prezidentimiz barcha ziyolilar timsolida ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi kerak, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak, deb qayd etmagan.

Bugun butun dunyoda buzg'unchi mafkuralar insonlar, insoniyat orasiga radikal g'oyalar, adolatsizlik, tengsizlik, zo'ravonlik, shafqatsizlik kabi "g'oyalar" urug'ini sepishga keng ahamiyat bermoqda. Buning natijasida an'anaviy qadriyatlarga mos kelmaydigan qadriyatlarni targ'ib qilish, milliy qadriyatlarni "ekspertiza"dan o'tkazish rasm bo'lmoqda. Buzg'unchi mafkuralar ko'pincha o'z izdoshlarida jamiyatning eng yaxshi holatiga o'tmishda erishilgan, degan ishonchni uyg'otishga urinmoqda.

Shuningdek, vayronkor mafkuralarning asosiy elementlaridan biri boshqa guruhlar, irq, dinlar yoki madaniyatlardan ustunlik hissini yaratishga qaratilgandir. Ksenofobiya, nafrat va kamsitish maqsadlariga erishish bugungi kunda avj olaypti. Bular esa buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qiluvchi filmlar va seriallar qahramonlari vositasida g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni oqlaydigan ideallashtirilgan obrazlarning yaratilishiga olib kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar esa yoshlar orasida azaldan shakllangan ijtimoiy-ma'naviy me'yorlarni buzib, o'z chiqishlarida ekstremal holatlarni ko'paytirmoqda.

Ana shunday holat esa milliy ziyolilarimiz mas'uliyatini yanada oshirishni talab etmoqda. Vayronkor mafkuralar yoshlarimiz tafakkur tarzini butunlay izdan chiqarib tashlash imkoniyatlariga ega. Agar biz bugun tobora ham shakl, ham mazmun jihatidan taraqqiy etib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarga o'z vaqtida javob bera olmas ekanmiz, unda ko'p narsani yo'qotib qo'yish xavfi bor.

Nazarimda, endi yoshlarimizni "esli bo'lg'in", "axloqli bo'lg'in", "yaxshi bo'lg'in", degan nasihatlar bilan tarbiyalash tobora qiyinlashib boraveradiganga o'xshaydi. Nima, bolalarimiz o'sha gaplarni eshitmaganmi, bilmaydimi? Juda yaxshi bilishadi. Hamma gap, yoshlarimiz bilgan gapning, egallagan bilimining kuchli e'tiqodga aylanmaganidir. Endi biz, ziyolilar ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmas ekanmiz, yoshlarga kuchli ta'sir qiladigan zamonaviy tarbiya usullaridan foydalanmas ekanmiz, bu ishlarimiz jamiyat kutgan ijtimoiy samarani

berishi qiyin. Shu asnoda ziyolilarning jamiyat barqarorligi yo'lidagi mas'uliyati tobora ortib boraveradi.

Beshinchidan, ziyoli millatni uyg'otishi kerak. Jadid bobolarimiz millatni uyg'otish o'zlarining eng muhim, eng muqaddas vazifalari ekanligini takrorlagan edilar. Haqiqatdan ham, davlat va jamiyat taraqqiyoti qalbi nurga to'lgan, ko'zi ochiq, g'aflatdan begona, vijdoni pok insonlar bilangina ta'minlanishi mumkin. Biroq, uyqudagi xalqni uyg'otuvchi esa ziyolilar hisoblanadi.

Shu ma'noda qayd etish kerakki, ziyolining millatni uyg'otishi, uni ulug' ishlarga, yaratuvchanlik sifatlarining shakllantirishga safarbar etishi uchun bilimlilik darajasining o'zi yetarli emas, deb o'ylayman. "O'qimishli" boshqa, "ziyolilik" boshqa. Keling, shu o'rinda taniqli olim, akademik D.Lixachevning quyidagi fikrlariga diqqat qarataylik: haqiqiy ziyoli insonni hamma bilimlaridan judo qiling, xotirasidan ayiring. Dunyodagi barcha narsa esidan chiqsin, adabiyotdagi klassiklarni tanimasin, buyuk san'at asarlaridan xabari bo'lmasin, muhim tarixiy voqealarni yodidan chiqarsin, lekin shunda ham intellektual boyliklarni qabul qila olsa, tarixga qiziqsa, estetik didga ega bo'lsa, hayratlantirish uchun yaratilgan haqiqiy san'at asarini qo'pol "axlatdan" farqlay olsa, tabiatning go'zalligidan ilhomlana olsa, boshqa insonning xarakteri va individualligini tushuna olsa, uning o'rniga o'zini qo'yib, uni tushuna olsa, unga yordam bersa, qo'pollik qilmasa, befarqlik, ichiqoralik, hasad qilmasa, boshqalarni qadrlay olsa, qadimgi madaniyatlarga hurmat bilan qarasa, tarbiyali inson ko'nikmalarini ko'rsata olsa, axloqiy savollarda qabul qilgan qarorlariga mas'uliyatni his etsa, o'z tilining boyligi va aniqligidan foydalana olsa – mana bu ziyoli inson.

Darhaqiqat, mohiyatan juda mantiqli, chiroyli ta'rif. Ziyoli inson o'z shaxsiy manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlari, odamlar xursandchiligi-yu tashvishlari bilan uyg'unlashtira oladigan shaxs hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tom ma'nodagi ziyoli odamlarni fazilatlariga eltuvchi va ularni razolatdan uzoqlashtiruvchi, buyuk kuchga ega insondir. Shu ma'noda har qanday jamiyatda ziyolining mas'uliyati aholining boshqa tabaqalariga qaraganda ming chandon keng va chuqurdir.

Oltinchidan, har doim ham jamiyat qadriyatlarining o'lchov birligi – bu insonga bo'lgan munosabatdir. Yana shu narsa ma'lumki, o'zini jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga bag'ishlagan insonlar bilan milliy elita shakllanadi. Xo'sh, milliy elitaning sifatlari nimalardan iborat? Bizning nazarimizda ular quyidagilardan tashkil topadi: u mas'uliyatli, doimo o'z ustida ishlashga tayyor, ruhan tetik, sodiq qoluvchi, sinmas, sadoqatli, ehtiyotkor, axloqli, adolatli, mo'tadil-kamsuqum, fidokorlikka o'rgangan, to'g'ri va zarur ish qilayotganiga ishonchi komil, jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan, jasur. Bu jarayonda milliy ziyolilarimizning mas'uliyati yanada oshadi.

Biz bu fikrni bekorga aytayotganimiz yo'q. Gap shundaki, oldimizda xilma-xil va qiziqarli, ba'zan barchani ham hayratga, ham qo'rquvga soladigan muammolar ko'payib bormoqda. Ular ichida eng jiddiy va muhimi – insoniyatning o'zgarishiga olib keluvchi yangi texnologik inqilobni tushunish va shakllantirishdir. Biz yashash tarzimiz, ish faoliyatimiz va o'zaro munosabatlarimizni tubdan o'zgartirib yuboruvchi inqilob ostonasida turibmiz. Bugungi ko'lami va murakkabligi jihatidan “to'rtinchi sanoat inqilobi” deb nomlangan hodisa insoniyat boshidan kechirgan hech bir jarayonga o'xshamaydi.

Ana shunday sharoitda insoniyat hayot mazmunini topishda qiynalmoqda. Yoshlarimiz qadriyatlar iyerarxiyasida nimalar turishi kerakligini aniqlashda xatolarga yo'l qo'ymoqda. Eng yomoni ba'zi e'tiqodi sust yoshlarimiz bir nechta shaxsiyatga ega bo'lish ehtimoli kuchayib bormoqda. Bu juda xavfli holat.

Bir paytlar ana shunday tahlikali holat yuzaga kelganda milliy ziyolilarimizning gullari, milliy elitamizning qaymog'i bo'lgan jadid bobolarimiz ham tashvish chekib yaxshi o'qimasdan, kaptarbozlik, bedanabozlik, qimorbozlik ishlari bilan band bo'lganlarning hech qachon biri ikki bo'lmasligini bot-bot ta'kidlaganlar. Jumladan, jadid taraqqiyparvarlardan Tavallo (1883–1937 yillar) o'zining “Ilm natijalari” maqolasida shunday yozadi: “Ey qardoshlarim, yoshlarning baxtli yashamoqlari bizlarning ijtihodimizga bog'liqdur. Agarda yoshlar tarbiyasiz o'ssalar, bir kun bular siz bilan bizni duobad qilurlar, nafrat etarlar. Agarda bizlar yoshlikdan yaxshi tarbiyat qilsak, dunyoda rohat yashab, boshqalar kabi dunyodin

bearmon ketarlar. Agarda bizlar uxlab yotsak, millatimizning bog'i hayotiga chechaklar o'tquzib, umid gullarin quruturmuz. Bizlarga dunyoda na kerak: o'qimoq, maishatidin bahralanmoq, Yovrupo maktablarinda tarbiya ko'rmak. Yetar bizlarga uloq chopmoq, bachcha o'ynamoq, to'y to'ylamoq" [4, 247-b].

Ushbu iqtibosdan milliy ziyolilarning tom ma'nodagi mas'uliyat hissi ko'rinib turibdi. Bobomiz yoshlar kelajagini o'z mas'uliyatida, millatni uyg'otishda ko'rmoqda.

Afsuski, bugungi kun ham o'zining mohiyati, xavf-xatarlarga to'lib-toshganligi bilan barchani tashvishga solmoqda. Ma'naviyatsizlik ortib bormoqda. Buning oqibatida jamiyatda odamlarning milliy madaniy merosdan begonalashuvi, an'anaviy qadriyatlarni eskilik qoldig'i sifatida to'g'ridan-to'g'ri inkor etilishi, e'tiqodi sust, davlat va jamiyat manfaatlariga nisbatan bepisandlik holatlari uchramoqdaki, bularning bari milliy ziyolilarimiz oldiga juda katta vazifalarni qo'ymoqda.

Jamiyatda beqarorlikni barqarorlikka, ma'naviyatsizlikni ma'naviyatlilikka aylantiradigan ham, kosmopolitni vatan uchun jonini fido qilishgacha bo'lgan kayfiyatini shakllantiradigan, o'z shaxsiy manfaatini hamma narsadan yuqori qo'yuvchi individualistni jamiyat uchun qayg'uradigan, ijtimoiy faol insonga aylantiradigan ham ziyoli bo'ladi.

Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini qurish aslo ziyolilarning ishtirokisiz amalga oshirish mumkin emas. Bugungi jamiyatimizning yanada barqarorlashuvi, davlatimizning taraqqiy etishi, xalqimiz farovonligini ta'minlashning negizida, shubhasiz, ziyolilar harakati, ularning fidokorona mehnati yotadi. Mening nazarimda milliy ziyolilarimizning sifatlari orasida birinchidan, bilimlilik-intellektuallik, ikkinchidan, o'z g'oyasiga egaligi, uchinchidan, qalbning tozaligi, to'rtinchidan, davlat va jamiyat taraqqiyoti yo'lida o'zni safarbar eta olish ko'nikmasi, beshinchidan, ijtimoiy faolligi kabilar alohida o'ringa ega.

Haqiqatdan, ziyoli – ziyo, nur tarqatuvchi sifatida bugungi kunda yana o'z ijtimoiy o'rniga ega bo'lib bormoqda. Ayni paytda qayd etgim kelyaptiki,

ziyolilarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, ularning ta'sir kuchini yanada oshirish so'zsiz bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Avvallari yozuvchilar, jurnalistlar, teatr arboblari va boshqa ziyoli tabaqalarining turli qurultoylari, ijodiy uchrashuvlari bo'lar edi. Bu tadbirlarda ziyolilar o'z sohasidagi kamchilik, xato, muammolarni tahlil qilishar, sohani yanada taraqqiy etishi bilan bog'liq muhim strategik yo'nalishlarni belgilab olar edilar. To'g'ri, hozir ham bunday tadbirlar onda-sonda uchrab turadi. Bular haqida vaqtli matbuotda ayrim xabarlar berib turiladi. Biroq, mening kuzatishimcha, bularning aksariyati ishlab chiqarish, tashkiliy masalalar bilangina chegaralanib qolayotganga o'xshaydi.

Shu ma'noda ziyolilarning qurultoylarini o'tkazish amaliyotini tiklashni zarur deb bilaman. Bu sovet mustabid tuzumini qo'msash emas. Biz jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladigan har bir narsadan samarali foydalanishni ham o'rganishimiz kerak, deb o'ylayman. Ziyolilar qurultoylarida sohaning eng dolzarb masalalari muhokama etilishi, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan targ'ibot usullarini ishlab chiqish, madaniyat va san'at, milliy adabiyotimizdagi zamon qahramoni obrazini yaratish, amalga oshirilayotgan islohotlarda ma'naviy-mafkuraviy omilning o'rnini oshirish kabi masalalar o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yana bir masala: biz yuqorida qayd etganimizdek, butun insoniyat to'rtinchi sanoat inqilobi ostonasida turibmiz. Shubhasiz, uning ijobiy tomonlari juda ko'p. Odamlar og'irini yengil qilish, vaqtni tejash, jismoniy mehnatni yengillashtirish, ish samaradorligini oshirish kabilarda mazkur inqilob alohida o'rin egallaydi. Ayni paytda, bu jarayon sof insoniy munosabatlarga, axloqiy masalalarga, inson-jamiyat-davlat tamoyiliga, an'anaviy qadriyatlarning davomiyligiga, qolaversa, oddiy gap bilan aytganda barchamiz uchun qadrdon bo'lgan o'zbekchiligidimizga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ham ayon.

Ana shunday sharoitda milliy ziyolilarimiz zimmasiga juda katta mas'uliyat tushadi. Shoir-yozuvchi tomonidan an'anaviy tarzda yaratilayotgan asarlarni sun'iy intellekt bir lahzada bajarmoqda, odamlar oddiy nasihatlarini eshitishdan qochmoqda,

ular barcha savollariga ijtimoiy tarmoqlar orqali javob olmoqdalar. Bu esa ziyolilar mas'uliyatini yanada oshirishga undaydi. Avvallari foydalanib kelingan usullar tez eskirmoqda. Bunday sharoitda ziyolilarimiz o'z faoliyatining yangi, innovatsion usullarini yaratishlari dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Raqamli dunyoning ta'siri juda tez, ko'z ilg'amas tarzda o'zgarmoqda. Buning uchun esa biz, ziyolilar raqamli dunyoga moslashishimiz, o'zgarishimiz, o'zgarganda ham, bitta-bitta bo'lib emas, jamoaviy tarzda yangilanishimiz kerak, deb o'ylayman.

Birdamlik va barqarorlik biz uchun ustuvor vazifa va buyuk niyat. Ibn Xaldun bu borada shunday deydi: "Hokimiyatning poydevori g'alabaga, g'alaba esa xalq birdamligiga va maqsadlar birligiga asoslangan. Biroq, bu xalq birdamligi va maqsadlarning yagona yo'nalishda bo'lishiga tayanadi. Insonlarning qalblari botil manfaatlar va botil yo'llarga tortilganda, ular orasida raqobat va nizolar kuchayadi. Ammo, qalblar haqiqiy manfaatlardan voz kechib, yagona maqsad atrofida birlashadi. Shu bilan birga raqobat yo'qoladi, o'zaro nizolar kamayadi va jamoaviy birdamlik kuchayadi bu birlik davlatning kuchayishiga va barqaror bo'lishiga olib keladi" [5, 329-9].

Darhaqiqat, bugun dunyo alg'ov-dalg'ov bo'lib turgan bir paytda, qadriyatlar qadrsizlanib, sof insoniy munosabatlarga darz ketayotgan davrda birdamlik va barqarorlik, ijtimoiy-ma'naviy muhit mustahkamligi biz uchun eng ustuvor maqsad hisoblanadi. Ana shu vazifa esa ziyolilarimiz, ular o'rtasidagi sof ijodiy hamkorlikka bog'liqdir. Chunki, ziyoli birlashsagina millat birlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 233-b.
2. Mirziyoyev Sh. *Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2024. – 5-b.
3. Mirziyoyev Sh. *Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston*. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 5-b.

4. Tavallo. *Millat sadosi*. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Nashriyot – Matbaa Ijodiy Uyi, 2015. – 247-b.

5. Ibn Xaldun. *Muqaddima. Birinchi juz*. – Toshkent: Trust and Support, 2025. – 329-b.

